



2025-yilda "Talimarjon IES" AJning uchun energobloklarini nazorat o'tkazib turiladigan metallarini va shikastlangan metallarini tekshirish, metallarni kimyoviy tahlil qilish, hamda energoblokлarni issiqlik mexanikasi qurilmalari metallari holatini tekshirishda texnik yordam ko'rsatish ishlarini (xizmatlari) bajarish uchun

ENG YAXSHI TAKLIFNI TANLASH HUJJATLARI

Buyurtmachi: "Talimarjon Issiqlik elektr stansiyasi" AJ

Mundarija

1. TANLASH ISHTIROKCHILARI UCHUN YO'RIQNOMA
1. ENG YAXSHI TAKLIFNI TANLASHNING PREDMETI
VA BOSHLANG'ICH NARX
2. TANLOV TASHKILOTCHISI
3. TANLASH ISHTIROKCHILARI
4. TAKLIF VA UNI RASMIYLASHTIRISH
5. TAKLIF TAQDIM ETISH MUDDATTINI UZAYTIRISH
6. XARID QILISH HUJJATLARIGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH
7. TAKLIFLARNI MEZONLAR ASOSIDA KO'RIB CHIQISH TARTIBI
8. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA MAXFIYLIKKA RIOYA QILINISHI
9. BOSHQA SHARTLAR
10. SHARTNOMA TUZISH

Ishtirokchilar va tanlash takliflarini malaka baholash tartibi va mezonlari.

2. NARH QISMI

TANLASH ISHTIROKCHILARI UCHUN YO'RIQNOMA

Ushbu xarid qilish hujjatlari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi «Davlat xaridlari to'g'risida»gi O'RQ-684-sodn Qonuni (bundan buyon – Qonun), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 maydagi 276-sodn qarori ilovasining «Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom» talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1. ENG YAXSHI TAKLIFNI TANLASHNING PREDMETI VA BOSHLANG'ICH NARX

1.1. Tanlash predmeti: 2025-yilda “Talimarjon IES” AJning uchun energobloklarini nazorat o'tkazib turiladigan metallarini va shikastlangan metallarini tekshirish, metallarni kimiyoiy tahlil qilish, hamda energobloklarni issiqlik mexanikasi qurilmalari metallari holatini tekshirishda texnik yordam ko'rsatish ishlarini (xizmatlari) bajarish uchun.

1.2. Boshlang'ich narx: 224 375 558 (**Ikki yuz yigirma to'rt million uch yuz yetmish besh ming besh yuz ellik sakkiz**) so'm QQS bilan. Taklifda ko'rsatilgan narxlar boshlang'ich narxidan oshmasligi kerak.

1.3. Xarid qilinadigan tovarlar (xizmatlar, ishlar) uchun texnik topshiriq tanlash hujjatining texnik qismida keltirilgan.

2. TANLOV TASHKILOTCHISI

2.1. Eng yaxshi takliflarni tanlashning (bundan buyon – Tanlash) Buyurtmachisi (bundan buyon – Buyurtmachi) hisoblanadi. Buyurtmachining yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Nishon tumani, Nuriston shaharchasi. “Buyurtmachi” rekvizitlari: MFO 00440, STIR 201284979 x/r 20210000100177788001, x/r 22604000700177788998 Toshkent shahri. “O'zsanoatqurilishbank” ATB Bosh ofisi.

2.2. Ishchi organ: “Talimarjon Issiqlik Elektr Stantsiyasi” AJ xarid komissiyasi quyidagi manzilda joylashgan: 181107, O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Nishon tumani, Nuriston shaharchasi.

2.3. Sharhnomalar egasi: «Talimarjon Issiqlik Elektr Stantsiyasi» AJ.

2.4. Tanlash, « Talimarjon Issiqlik Elektr Stantsiyasi » AJ tomonidan tashkil qilingan xarid komissiyasining eng kamida besh a'zosi bilan o'tkazladi.

3. TANLASH ISHTIROKCHILARI

3.1. Tanlashda O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, ushbu hujjatda ko'rsatilgan shartlarni bajargan (ushbu xarid qilish hujjatlarining 3.2-bandida sanab o'tilgan shaxslar bundan mustasno), shuningdek shu kabi tovari (ishlar, xizmatlari) yetkazib berish tajribasiga ega bo'lganlar ishtirok etishlari mumkin.

3.2. Quyidagi ishtirokchilarga tanlashda ishtirok etish uchun ruxsat berilmaydi:
-zarur hujjatlarni belgilangan muddatda taqdim etmagan;
-buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasi holatida bo'lgan;
-insofsiz ijrochilarning yagona reestrda bo'lgan;
-solqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzlarga ega bo'lgan;
-xarid qilish hujjatlari talablariga javob bermaydigan malaka hujjatlarini taqdim etgan.

3.3. Majburiy hujjatlardan tashqari, ishtirokchi o'zining qo'shimcha ma'lumot hujjatlarini taqdim etish huquqiga ega. Qo'shimcha hujjatlarni taqdim etmaslik ishtirokchini diskvalifikattsiya qilish uchun sabab bo'lishi mumkin emas.

3.4. Buyurtmachi quyidagi hollarda ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlashtirishga haqli:

- ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabдор shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga

yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;

- ishtirokchi O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligini buzgan holdaadolatsiz raqobat ustunligiga yoki manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lsa.

4. TAKLIF VA UNI RASMIYLASHTIRISH

4.1. Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchi:

- www.etender.uzex.uz maxsus axborot portalida joylashtirilgan eng yaxshi takliflarni tanlash talablari bilan tanishish uchun xarid hujjatlari yuklab olishi kerak;
- qonunchilik va xarid qilish hujjatlari talablari va muddatlariga muvofiq taklifini taqdim etishi shart;

4.2. Portalda e'lon qilingan eng yaxshi taklifni tanlashda ishtirokchilar o'z takliflarini belgilangan tartibda yuklaydilar.

4.3. Taklif va u bilan bog'liq bo'lgan ishtirokchi va Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan barcha yozishmalar va hujjatlar, davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda bo'lisci kerak. Taklif unga rus yoki o'zbek tilidagi tarjimasi ilova qilingan holda boshqa tilda bo'lisci mumkin. Taklif matnida nomuvofiqliklar yuzaga kelganda, birdan ortiq til ishlataliganda, o'zbek yoki rus tillari ustunlik qiladi. Texnik xujjatlarni ingliz tilida taqdim etilishiga ruxsat beriladi.

4.4. Taklif elektron shaklda taqdim etiladi (rangli shaklda ishtirokchining imzosi va muhri bilan).

4.5. Takliflar auktsion boshlangan kundan boshlab www.etender.uzex.uz portalda ko'rsatilgan sanagacha elektron shaklda taqdim etiladi

4.6. Eng yaxshi taklifni tanlash ishtirokchilar taklifining amal qilish muddati takliflar taqdim etilgan kundan boshlab kamida 60 kun bo'lisci kerak.

5. TAKLIF TAQDIM ETISH MUDDATINI UZAYTIRISH

5.1. Agar zarur bo'lsa, buyurtmachi takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirishi, shuningdek tanlash ishtirokchilariga o'z takliflarining haqiqiyligini Xarid komissiyasining qarori bilan ma'lum muddatga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

5.2. Taklifni taqdim etish muddatini uzaytirish to'g'risidagi e'lon maxsus axborot portalida joylashtiriladi va zarur hollarda buyurtmachining veb-saytida yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

6. XARID QILISH HUJJATLARIGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH

6.1. Zarurat bo'lganda, buyurtmachi xarid qilish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

6.2. Takliflar berish muddati tugaydigan sanadan bir ish kunidan kechiktirmay tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin. Bunda ushbu tanlashda takliflarni taqdim etishning tugash muddati kamida uch ish kuniga uzaytiriladi.

6.3. Tovar (ish, xizmat) nomi yoki uning xususiyatlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

6.4. Shu bilan birga, e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi.

7. TAKLIFLARNI MEZONLAR ASOSIDA KO'RIB CHIQISH TARTIBI

7.1. E'londa tanlov o'tkazish vaqtida sifatida ko'rsatilgan vaqt, eng yaxshi taklifni tanlashda xarid komissiyasi ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan takliflarni yuklab olish va ko'rib chiqish uchun.

7.2. Tanlov ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baxolash muddati takliflar taqdim etishning oxirgi muddati tugagan kundan boshlab o'n kundan oshmasligi kerak.

7.3. Takliflar ko'rib chiqish vaqtida barcha hujjatlarning mavjudligi, namunalar va ularning to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshiriladi. Talab qilingan hujjatlar bo'limgan taqdirda, tanlash bo'yicha xarid komissiyasi ushbu taklifni ko'rib chiqish va baholashga yo'l qo'ymaslikka

xaqli.

7.4. Tanlash takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- ishtirokchining malaka talablarga muvofiqligini baholash - bunda xarid komissiyasi ishtirokchilarining taqdim etgan hujjatlari talab darajasida bo'lmasa texnik mezon bo'yicha baholash bosqichiga o'tkazmaydi;
- tanlash taklifining texnik mezon bo'yicha baholash - bunda xarid komissiyasi ishtirokchilarining taqdim etgan hujjatlari mazkur xarid xujjalarning 7.5. bandiga asosan baholaydi va kerakli ballni to'plagan ishtirokchi narx qismini baholash bosqichiga o'tadi yoki aksincha, yetarli ballni to'plamagan ishtirokchi avtomatik tarzda tanlashdan chetlatiladi;
- tanlash taklifining narx qismini baholash - bunda, maxsus axborot portalining avtomatlashtirilgan tizimi o'zi eng arzon narx taklifini aniqlab, umumiy bosqichlarda to'plangan ballarni sarxisob qiladi va g'olib ishtirokchini aniqlaydi.

7.5. Xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlash uchun rad etilmagan takliflarni xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida, quyidagicha baholaydi:

- Ishtirokchi haqida umumiy ma'lumot – To'liq ma'lumot taqdim qilgan – 15 ball; 1-2 ta ma'lumot taqdim qilinmagan – 10 ball; Kam va qoniqarsiz ma'lumot taqdim qilgan – 1 ball; Ma'lumot taqdim qilmagan – chetlatiladi.
- Ishtirokchining moliyaviy holati - Korxona hisobot davrlarida 500 mln. so'mdan yuqori bo'lgan sof foyda bilan hisobot topshirgan, hisobotlari yaxshi – 10 ball; Korxona hisobot davrlarida 500 mln. so'mgacha bo'lgan sof foyda yoki faqat so'ngi davr hisobotida foyda bilan (miqdoridan qat'iy nazar) hisobot topshirgan, hisobot qoniqarli – 5 ball; Korxona hisobot davrlarida zarar bilan yoki faqat so'ngi davr hisobotida zarar bilan hisobot topshirgan – 1 ball; Ma'lumot taqdim qilmagan – 0 ball.

- Malakali mutaxassislar haqida ma'lumot – Ishtirokchi shtatidagi mavjud bulgan kamida 4 ta va undan ortiq mutaxassis to'g'risidagi ma'lumotni ruyxat shaklida taqdim etgan. Shundan, belgilangan tartibda mehnat shartnomasi tuzilgan hamda Yagona Milliy Mehnat tizimidan (matnda-YAMMT) ro'yxatdan o'tgan:

- 2 muxandis;
- 2 mutaxasis

Ushbu mutaxassislarning mehnat faoliyati (staji) to'g'risidagi YAMMTdan olingan ma'lumot taqdim etgan – 25 ball;

Ishtirokchi shtatidagi mavjud bulgan kamida 3 dan 2 tagacha va undan ortiq mutaxassis to'g'risidagi ma'lumotni ruyxat shaklida taqdim etgan. Shundan, belgilangan tartibda mehnat shartnomasi tuzilgan hamda Yagona Milliy Mehnat tizimidan (matnda-YAMMT) ro'yxatdan o'tgan:

- 1 muxandis;
- 1 mutaxasis

Ishtirokchi shtatidagi mavjud bulgan kamida 2 tadan 1 tagacha va undan ortiq mutaxassis to'g'risidagi ma'lumotni ruyxat shaklida taqdim etgan. Shundan, belgilangan tartibda mehnat shartnomasi tuzilgan hamda Yagona Milliy Mehnat tizimidan (matnda-YAMMT) ro'yxatdan o'tgan:

- 1 mutaxasis

Ushbu mutaxassislarning mehnat ' faoliyati (staji) to'g'risidagi YAMMTdan olingan ma'lumot taqdim etgan – 5 ball; Ishtirokchi shunga o'xhash xizmatlarni ko'rsatishda mos kelmaydigan tajriba va qoniqarsiz ma'lumot taqdim qilgan yoki ma'lumot taqdim qilmagan – 0 ball.

- Ish tajribasi – Ishtirokchi 10 va undan ortiq shunga o'xhash xizmatlarni ko'rsatishda oxirgi 2 yil davomida yetarli tajribasi to'g'risida ma'lumot hamda tasdiqlovchi hujjatlarni (shartnomalar, ishni topshirish dalolatnomalari, tavsiyanomalar) taqdim etgan – 25 ball; Ishtirokchi 7ta shunga o'xhash xizmatlarni ko'rsatishda oxirgi 2yil davomida yetarli tajribasi to'g'risida ma'lumot hamda tasdiqlovchi hujjatlarni (shartnomalar, ishni topshirish dalolatnomalari, tavsiyanomalar) taqdim etgan – 15 ball; Ishtirokchi 5 ta shunga o'xhash xizmatlarni ko'rsatishda oxirgi 2 yil davomida yetarli tajribasi to'g'risida ma'lumot hamda tasdiqlovchi hujjatlarni (shartnomalar, ishni topshirish dalolatnomalari, tavsiyanomalar) taqdim etgan – 5 ball;

Ishtirokchi shunga o'xhash xizmatlarni ko'rsatishda mos kelmaydigan tajriba va qoniqarsiz ma'lumot taqdim qilgan yoki ma'lumot taqdim qilmagan - 0 ball.

7.6. Agar tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlar ishonchsiz deb topilgan bo'lsa, Xarid komissiyasi bunday ishtirokchini tanlashda ishtirok etishdan chetlashtirishga haqlidir.

7.7. Taklifni baholash va tanlash g'olibini aniqlash mezonlari mazkur tanlash hujjatida ko'rsatilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi (2-ilova).

7.8. Taklif amaldagi Qonun va xarid qilish hujjatlari talablariga javob beradigan bo'lsa, to'g'ri rasmiylashtirilgan deb tan olinadi.

7.9. Agar taklifni taqdim etgan ishtirokchi amaldagi qonunda belgilangan talablarga va xarid qilish hujjatlari talablariga javob bermasa Xarid komissiyasi uni rad etadi.

7.10. Taklifni baholash jarayonida buyurtmachi tanlov ishtirokchilaridan ularning takliflari haqida tushuntirishlar so'rashi mumkin. Ushbu tartib rasman, yozma ravishda belgilangan tartibda tanlash tashkilotchisi orqali amalga oshiriladi. Tushuntirish jarayonida taklif mohiyatida, shuningdek narxda hech qanday o'zgarishlarga yo'l qo'yilmaydi.

7.11. Agar tanlash shartlariga ko'ra tanlash ishtirokchilari turli valyutalarda takliflar kiritgan bo'lsalar, baholash davomida takliflar summalari maxsus axborot portalida e'lon qilingan sanadagi (lotning boshlanish sanasi) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha yagona valyutada hisoblanadi.

7.12. Xarid qilish hujjatlarida va takliflarda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tanlash ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

7.13. Arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo'lganda, xarid komissiyasi tanlas ishtirokchisini xabardor qilgan holda, xarid taklifini rad etish yoki uni ko'rib chiqish uchun boshqa shartlarni aniqlash huquqiga ega.

7.14. Xorijiy va mahalliy Tanlov ishtirokchilari narxlarini to'g'ri taqqoslash uchun baholashda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan nazarda tutilgan hollarda tegishli xarajatlar (soliqlar, bojxona to'lovlari va boshqa majburiy to'lovlari) hisobga olinadi. Bundan tashqari, agar boshlang'ich narxi xorijiy valyutada ko'rsatilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan nazarda tutilgan hollarda tegishli xarajatlar (soliqlar, bojxona to'lovlari va boshqa majburiy to'lovlari) hisobga olingan holda ham qayta hisoblab chiqiladi.

7.15. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari baholash bayonnomasida qayd etiladi.

7.16. Takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi xarid komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi va undan ko'chirma imzolangan kundan uch ish kunida maxsus axborot portaliga joylashtiriladi.

7.17. Tanloving xar qanday ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi e'lon qilinganidan keyin buyurtmachiga tanlov natijalarini aniqlashtirish uchun so'rov yuborishga haqli. Buyurtmachi bunday so'rovni olgan kunudan boshlab uch ish kuni ichida tanlov ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

8. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA MAXFIYLIKKA RIOYA QILINISHI

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq quyidagilar javobgar bo'ladilar:- ishchi organ tarkibiga kiruvchi takliflarning hisobini yurituvchi, ularning saqlanishi va maxfiyligini ta'minlovchi shaxslar;- ma'lumotlarni oshkor qilish, ishtirokchilar, komissiyaning boshqa a'zolari va jalb qilingan ekspertlar bilan til biriktirishga yo'l qo'yish, shuningdek boshqa qonunga xilof xarakatlar qilish uchun komissiya raisi va a'zolari, hamda, takliflarni o'rganish uchun tuzilgan ishchi gurux a'zolari.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Agar tanlashda avval O'zbekiston Respublikasi hududida ko'rsatilmagan xizmat takif qilinayotgan bo'lsa, Xarid komissiyasi tanlash ishtirokchisidan ilgari ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha uchinchi shaxslardan fikr-mulohazalarni so'rashga haqli.

9.2. Tanlashda ishtirok etish istagini bildirgan ishtirokchilar, o'tkazilayotgan tanlash bo'yicha tushuntirish olish uchun Buyurtmachi bilan bog'lanish huquqiga ega.

9.3. Tanlash ishtirokchisi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan davlat buyurtmачisiga ochiq elektron chat orqali so'rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmачisi so'rov tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

9.4. Tanlash quyidagi hollarda xarid komissiyasi tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

- tanlashda bitta ishtirokchi qatnashgan bo'lsa yoki hech kim qatnashmagan bo'lsa;
- agar takliflarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, xarid komissiyasi barcha takliflarni xarid qilish hujjatlari talablariga mos kelmasligi sababli rad etgan bo'lsa.

9.5. Buyurtmachi g'olib bo'lган taklifni qabul qilishdan oldin istalgan vaqtida tanlashni bekor qilish huquqiga ega. Tanlash bekor qilingan taqdirda, buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalda e'lon qiladi.

10. SHARTNOMA TUZISH

10.1. Tanlash natijalariga ko'ra, shartnoma xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan shartnoma shartlari asosida tuziladi.

10.2. Tanlov bo'yicha xarid komissiyasining qarori bilan tanlov g'olib deb e'lon qilingan tanlov ishtirokchisi buyurtmachidan tegishli yozma xabar oladi.

10.3. Agar tanlash g'olib tanlash shartlari bo'yicha shartnoma tuzishdan bosh tortsa, shartnoma tuzish huquqi zaxira ijrochiga o'tadi. Bunday holda, zaxira ijrochi tanlash g'olib tomonidan taklif qilingan narx bo'yicha shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

10.4. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2024 yil 18-dekabr kunidagi PQ-445 sonli "Talimarjon IES" AJning quvvati 900 MW bo'lган bug"-gaz qurilmasi va uning infratuzilma ob'ektlarini sotish" to'g'risidagi qaroriga ko'ra ya'ni ob'ektni qarorda ko'rsatilgan sotib oluvchilar qabul qilib olgandan so'ng, ushbu shartnoma o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

Ishtirokchilarni malakasini baholash tartibi va mezonlari va tanlov takliflari
Tanlash ishtirokchilarini baholash mezonlari

Nº	Mezonlar	Kategoriya og'irligi %	Kategoriya og'irligi %
1.	Malakaviy baholash		
1.1	Shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar va boshqa resurslarning mavjudligi; <i>(Ishtirokchi shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar va boshqa resurslarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot taqdim etishi kerak)</i>		Agar mos kelmasa yoki taqdim etilmasa, qatnashuvchi diskvalifikatsiya qilinadi
1.2	Shartnomalar tuzish uchun qonuniy huquqning mavjudligi; <i>(Ishtirokchi korxona guvohnomasi va shartnomalarni imzolovchi shaxsga berilgan huquq buyrug'i nusxasini taqdim etishi kerak)</i>		Agar mos kelmasa yoki taqdim etilmasa, qatnashuvchi diskvalifikatsiya qilinadi
1.3	Soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun muddati o'tgan qarzlarning yo'qligi; <i>(Ishtirokchi hujjalarning topshirilish kuniga qadar 30 kalendar` kundan ko'p bo'lmasan muddatda rasmiylashtirilgan soliqlar va byudjetga boshqa majburiy to'lovlardan bo'yicha qarzdorliklar mavjud emasligi holatini tasdiqlovchi hujjalarning taqdim etishi kerak)</i>		Agar mos kelmasa yoki taqdim etilmasa, qatnashuvchi diskvalifikatsiya qilinadi
1.4	Bankrotlik tartibi mavjud emas; <i>(Ishtirokchi to'lovgaga layoqatsiz yoki bankrot holatida emasligi, ishtirokchining xo'jalik faoliyatini to'xtatilmaganligi to'g'risida ma'lumotni tegishli davlat organi tomonidan yoki uning rasmiy veb saytidan taqdim etishi kerak)</i>		Agar mos kelmasa yoki taqdim etilmasa, qatnashuvchi diskvalifikatsiya qilinadi
1.5	Yagona reestrda vijdonsiz ijrochilarining yo'qligi; <i>(Ishtirokchi vijdonsiz ijrochilar ro'yxatida mavjud emasligini tasdiqlovchi ma'lumot tegishli davlat organining rasmiy veb saytidan taqdim etishi kerak)</i>		Agar mos kelmasa yoki taqdim etilmasa, qatnashuvchi diskvalifikatsiya qilinadi
1.6	Antikorrupsion ariza; <i>(Ishtirokchi korruptsion holatlarga va harakatlarga yo'l qo'ymaslik, uni oldini olish to'g'risida ariza taqdim etishi kerak. Ariza taqdim qilmagan ishtirokchi tanlashdan chetlatiladi);</i>		Agar mos kelmasa yoki taqdim etilmasa, qatnashuvchi diskvalifikatsiya qilinadi
2.	Texnik baholash	70%	100%
2.1	Ishtirokchi haqida umumiy ma'lumot; <i>(Ishtirokchi yuridik manzili, bank rekvizitlari, asosiy faoliyat turi, ustav nusxasi, korxona rahbarining pasport nusxasi haqida ma'lumot berishi kerak. Ma'umoilalar to'liq topshirgan</i>		Minimal 0 ball Maksimal 15 ball

	<i>ishtirokchi yuqori ball olishi mumkin yoki aksincha to'liq bo'lmanot uchun yuqori balldan kam ball olishi mumkin. Ma'lumot taqdim qilmagan ishtirokchi tanlashdan chetlatiladi;)</i>		
2.2	Ishtirokchining moliyaviy holati; <i>(Ishtirokchi 2022-2023 yillar uchun tasdiqlangan (qabul qilingan) yillik F1 va F2 moliyaviy hisobotlarini taqdim etishi kerak. Komissiya, taqdim qilingan hisobotlar orqali ishtirokchilarning moliyaviy barqarorligi va natijadorligi bo'yicha baholaydi;)</i>		Minimal 0 ball Maksimal 10 ball
2.3	Malakali mutaxassislar haqida ma'lumot; <i>(Ishtirokchi shtatidagi kamida 4 ta malakali mutaxassislar ruyxatini taqdim etishi kerak. Shulardan:</i> - 2 muxanlis; - 2 mutaxasis		Minimal 0 ball Maksimal 25 ball
2.4	Ish tajribasi; <i>(Ishtirokchi shunga o'xshash xizmatlarni ko'rsatishda yetarli tajribasi to'g'risida ma'lumot va tasdiqlovchi hujjalarni (shartnomalar nusxalari, ishni topshirish dalolatnomalari, tavsiyanomalar) taqdim qilishi kerak);</i>		Minimal 0 ball Maksimal 25 ball
2.5	Litsenziyalar; <i>(Ishtirokchi xavfi yuqori bo'lgan obyektlarni va potensial xavfli ishlab chiqarishlarni loyihalashtirish, qurish hamda ulardan foydalanish faoliyati uchun litsenziya).</i>		Minimal 0 ball Maksimal 25 ball
3	NARXLARNI BAHOLASH	30%	100%

Eslatma: Taklif elektron shaklda taqdim etiladi, asl hujjatlardan skanerlanadi, ishtirokchining imzosi va muhri bilan rangli formatda (tanlov g'olib shartnomalar bilan asl hujjatlarni olib kelishi kerak)

II. НАРХ ҚИСМИ

1	Narxi	224 375 558 (Ikki yuz yigirma to'rt million uch yuz yetmish besh ming besh yuz ellik sakkiz) so'm QQS bilan.
2	Moliyalashtirish manbai	"Talimarjon IES" AJ ing o'z mablag'lari
3	To'lov valyutasi	So'm, O'zbekiston Respublikasi Milliy valyutasi
4	To'lov shartlari	Oldindan to'lov – 15% kam bo'lmanan
5	Tanlash taklifini amal qilish muddati	30 kun
6	Boshlang'ich to'lov miqdori	Tanlashning boshlang'ich narxining umumiyligi so'mmasidan 3%

Komissiya tarkibi:

Komissiya raisi:

Ahmedov Shavkat Zaripovich

- Ishlab chiqarish bo'yicha direktor

Komissiya a'zolari:

Radjabov Najmiddin Asqarovich

- Umumiyl masalalar bo'yicha direktor

Nazarov Ural Samadovich

- Ta'mirlash xizmati boshlig'i

Suyunov Faxriddin Rasulovich

- Ekpluatatsiya xizmati boshlig'i

Shodiyev Rahimberdi Abdishukurovich

- Bosh xisobchi

Tashev Alisher Ergashovich

- Ta'mirga tayyorlash va o'tkazish

Bo'riyev Ihtiyor Bahtiyorovich


bo'limi boshlig'i
- Yuristkonsult

Kotib:

Najmitdinov Johongir Ruslanovich

- Xaridlar bo'yicha yetakchi mutaxassisi

Umumiy masalalar bo'yicha direktor



N.A. Radjabov

Ekpluatatsiya xizmati boshlig'i




F.R. Suyunov

Ta'mirlash xizmati boshlig'i



U.S. Nazarov

Bosh hisobchi



R.A. Shodiyev

Yuristkonsult



I.B. Bo'riyev

**Ta'mirga tayyorlash va o'tkazish
bo'limi boshlig'i**



A.E. Tashev